

ADABIYOT DARSLARIDA XALQ DOSTONLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISH

Samijonova Madina Ibragimjon qizi

NamDPI o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

2-kurs magistranti

madinasamijonova02@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiyot darslarida xalq dostonlarini o'qitishda multimedialli vositalardan foydalanishning pedagogik va metodik ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Xalq dostonlarining og'zaki ijod mahsuli sifatidagi xususiyatlari, ularni o'quvchilarga samarali yetkazishda audio, video, slayd-taqdimot va interaktiv vositalarning roli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida multimedialli vositalar asosida tashkil etilgan darslarning ta'limiy samaradorligi aniqlanib, foydali tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: xalq dostonlari, adabiyot darslari, multimedialli vositalar, baxshi ijrosi, og'zaki xalq ijodi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, badiiy tafakkur, interaktiv ta'lim, vizual va audio materiallar, adabiy ta'lim metodikasi, milliy qadriyatlar, ta'lim samaradorligi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ НАРОДНЫХ ЭПОСОВ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация: в данной статье подчеркивается педагогическая и методическая значимость использования мультимедийных средств при преподавании народных эпосов на уроках литературы. Анализируются характеристики народных эпосов как продукта устного творчества, роль аудио-, видео-, слайд-презентаций и интерактивных инструментов в их эффективной передаче учащимся. В ходе исследования определена образовательная эффективность уроков, организованных на основе мультимедийных средств, и даны практические рекомендации.

Ключевые слова: народные эпосы, уроки литературы, мультимедийные инструменты, бахшское представление, устное народное искусство, инновационные образовательные технологии, художественное мышление, интерактивное образование, визуальные и аудиоматериалы, методика преподавания литературы, национальные ценности, эффективность образования.

USING MULTIMEDIA TOOLS IN TEACHING FOLK EPICS IN LITERATURE CLASSES

Abstract: this article highlights the pedagogical and methodological importance of using multimedia tools in teaching folk epics in literature lessons. The characteristics of folk epics as a product of oral creativity, the role of audio, video, slide presentations and interactive tools in effectively conveying them to students are analyzed. During the study, the educational effectiveness of lessons organized on the basis of multimedia tools was determined, and practical recommendations were given.

Keywords: folk epics, literature lessons, multimedia tools, bakhshi performance, oral folk art, innovative educational technologies, artistic thinking, interactive education, visual and audio materials, literary teaching methodology, national values, educational effectiveness.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodi namunalarini, jumladan, xalq dostonlarini o'qitishda an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolish o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini to'liq qamrab olmaydi.

Xalq dostonlari o'zbek xalqining tarixiy xotirasi, milliy tafakkuri, axloqiy va estetik qarashlarini o'zida jamlagan noyob adabiy merosdir. Biroq dostonlarning hajman katta va syujet jihatdan murakkabligi ularni o'quvchilar tomonidan idrok etishni murakkablashtiradi. Shu bois dostonlarni o'qitishda multimediali vositalardan foydalanish dars jarayonining samaradorligini oshirishga ko'mak beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi — adabiyot darslarida xalq dostonlarini o'qitishda multimediali vositalardan foydalanishning metodik asoslari va pedagogik samaradorligini yoritishdan iborat.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, adabiyot darslarida xalq dostonlarini o'qitishda quyidagi muammolar uchraydi:

- doston matnlarining hajman katta bo'lishi;
- syujet voqealarining murakkabligi;
- o'quvchilarda og'zaki ijodga nisbatan qiziqishning sustligi;
- dostonning ijro an'alarini dars jarayonida to'liq aks ettirishning qiyinligi.

Multimediali vositalardan foydalanish ushbu muammolarni bartaraf etishning samarali yo'li sifatida ko'rilmqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xalq og'zaki ijodini o'qitish masalalari o'zbek adabiyotshunosligi va pedagogikasida ko'plab olimlar tomonidan muhokamalarga sabab bo'lgan. Jumladan, adabiy ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari

bo'yicha metodist olimlar tomonidan multimediali vositalarning ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'siri haqida ko'plab fikrlar aytib o'tilgan.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitishda audio va video materiallardan foydalanish o'quvchilarning badiiy matnni eshitish va ko'rish orqali idrok etish imkoniyatini yengillashtiradi. Ayniqsa, baxshi ijrosini tinglash dostonning og'zaki ijod mahsuli sifatidagi xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi.

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-adabiyotlarni tahlil qilish metodi –Bu metod orqali xalq dostonlarini o'qitishga doir nazariy manbalarni o'rganish;
- kuzatish metodi – Ushbu metod orqali multimediali vositalar asosida tashkil etilgan darslarni tahlil qilish;
- taqqoslash metodi – an'anaviy va multimediali tashkil etilgan darslarning samaradorligini solishtirish;
- amaliy tajriba metodi – audio, video va slayd-taqdimotlardan foydalangan holda darslar tashkillashtirish.
- tasvirla metodi- ushbu metodda o'quvchilar doston o'qish davomida tushungan voqeliklarini qog'ozda rasm asosida tasvirlaydi. Bu orqali asar mazmuni yodda qolishi osonlashadi.
- Sahnalashtirish metodi- o'quvchilarni guruhlariga bo'lgan holda topshiriq beriladi: asarning bir qismini sahnalashtirish. Bu orqali asar voqeliklarini rollarga kirosh asosida o'quvchilar o'zlari his qilishadi.

Tadqiqotlar davomida yuqoridagi metodlardan umumta'lim maktablarining 5–7-sinflarida xalq dostonlari mavzusi o'qitilishida qo'llanildi. Xalq dostonlarini o'qitishda multimediali vositalar quyidagi didaktik funksiyalarni bajarishi isbotlandi:

- axborot berish funksiyasi – doston mazmunini tizimli ravishda yetkazish;
- motivatsion funksiyasi – o'quvchilarning darsga qiziqishini yanada oshirish;
- rivojlantiruvchi funksiyasi – o'quvchida badiiy tafakkur va nutqni rivojlantirish;

- tarbiyaviy funksiyasi – o'quvchida milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish;
- nazorat funksiyasi – o'quvchi bilimlarini interaktiv testlar orqali baholash.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, xalq dostonlarini multimediali vositalardan foydalnib o'qitish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi ortib, doston mazmunini tushunish darajasi yengillashadi. Audio materiallar, jumladan, baxshi ijrosidagi doston parchalarini tinglash o'quvchilarda kuchli emotsional ta'sir uyg'otib, badiiy obrazlarni jonli tasavvur qilishga ko'mak beradi berdi. Video va animatsion lavhalar esa doston syujetidagi murakkab voqealarni tushunarli va qiziqarli tarzda ochib berishga xizmat qildi. Shuningdek, slayd-taqdimotlar va interaktiv topshiriqlar yordamida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va tahliliy ko'nikmalari yanada oshadi. Ushbu vositalardan foydalanish orqali erishilgan natijalar pedagogika sohasidagi avvalgi tadqiqotlar bilan bog'liq bo'lib, multimediali vositalarning didaktik imkoniyatlari yuqori ekanini isbotlaydi.

Masalan, "Alpomish" dostonini o'rganish jarayonida quyidagi ketma-ketlik yanada samarali bo'ldi:

Dars boshida doston haqida qisqa video lavha qo'yib beriladi. Baxshi ijrosidagi audio parcha ham havola qilinadi. Slayd orqali bosh qahramonlarning obrazlar tizimi o'zaro tahlil qilinadi. Dars so'ngida interaktiv viktorina o'tkaziladi. Natijada o'quvchilarning darsdagi ishtiroki va mavzuni o'zlashtirish darajasi kutilganidek bo'ladi.

Multimediali vositalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi:

- axborotni tanlash va tahlil qilish kompetensiyasi rovojlanadi;
- nutqiy va kommunikativ kompetensiya rivojlanadi;
- estetik did va badiiy idrok shakllanadi;
- milliy va umummadaniy kompetensiya shakllanadi;
- raqamli savodxonlik rivojlantiriladi.

Bu qism zamonaviy davlat ta'lim standartlariga mos keladi. Adabiyot darslarida foydalanish tavsiya etiladi:

- dostonlarni o'qitishda har bir darsda kamida bitta multimedia elementidan foydalanish;
- baxshi ijrosini imkon qadar asl manbalardan olish;
- o'quvchilarni taqdimot va video tayyorlashga jalb etish;
- multimedia vositalarini maqsadga muvofiq va me'yorida qo'llash.

Adabiyot darslarida Xalq dostonlarini o'qitishda qo'llaniladigan multimediali vositalar:

Audio yozuvlar (baxshi ijrosi)-Dostonning og'zaki ijro an'anasini ochib berish, ifodali nutqni anglatish. Natijada o'quvchilarda tinglab tushunish, estetik did va nutq madaniyati shakllanadi.

Video lavhalar (baxshi chiqishi, sahna ko'rinishlari)- Doston ijrochiligi va milliy madaniy muhitni ko'rsatish. Natijada o'quvchilarda dostonning milliy ruhi va tarixiy mazmuni haqida tasavvur hosil qilinadi.

Slaydli taqdimotlar - Syujet, obrazlar tizimi va asosiy g'oyani tizimli tushuntirish. Natijada o'quvchi tomonidan doston mazmuni mantiqiy ketma-ketlikda o'zlashtiriladi.

Ilyustratsiyalar va animatsiyalar- Murakkab voqealarni vizual obrazlar orqali yoritiladi. Natijada o'quvchilarning tasavvuri va obrazli fikrlashi yanada rivojlanadi.

Interaktiv test va mashqlar- O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlanadi. Natijada o'quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashi oshiriladi.

Elektron xaritalar va sxemalar -Doston voqealari kechgan makonlarni tushuntiriladi. Natijada dostonning makon va zamon jihatlari aniq anglanadi.

Multimediali loyiha ishlari- O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantiradi. Natijada o'quvchilarda mustaqil izlanish, ijodkorlik va taqdimot ko'nikmalari shakllanadi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarida xalq dostonlarini o'qitishda multimediali vositalardan foydalanish o'quvchilarning badiiy matnni chuqurroq

anglashiga, milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishini oshirishga va ta'lim jarayonini interaktiv usulda tashkillashtirishga yordam beradi. Shu bois xalq dostonlarini o'qitishda multimediali vositalardan tizimli va o'rinli foydalanish adabiyot ta'limining samaradorligini oshiruvchi muhim omil sanaladi.

Shunday qilib, xalq dostonlarini o'qitishda multimediali vositalardan foydalanish nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarda milliy adabiy merosga nisbatan ongli munosabatni ham shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 45–52-betlar.
2. Yo'ldoshev J.G'. Xalq og'zaki ijodi va adabiy ta'lim masalalari. – Toshkent: Fan, 2015. – 78–89-betlar.
3. Qodirov V. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 112–126-betlar.
4. Sayidov S. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ta'lim samaradorligi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. – 64–73-betlar.
5. Umarov B. O'zbek xalq dostonlari poetikasi. – Toshkent: Fan, 2014. – 101–115-betlar.
6. Xolmirzayev A. Adabiy ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 56–68-betlar.
7. Mirzayev T. O'zbek folklori va baxshichilik an'analari. – Toshkent: Sharq, 2016. – 134–149-betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Adabiyot fani bo'yicha davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent, 2021. – 22–31-betlar.
9. Abduqodirov A., Begimqulov U. Pedagogik texnologiyalar va interaktiv ta'lim. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 90–104-betlar.
10. Jo'rayev R. Milliy adabiy meros va zamonaviy ta'lim muammolari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – 58–66-betlar.